O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Rezavor mevalarni sotish va uning sifatini nazorat qilish standarti (FVV-57:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #YGUNIAKV24 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25-fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FVV-57:2023 “Standard concerning the marketing and commercial quality control of berry fruits” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #YGUNIAKV24 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEIK) qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, ishlab chiqaruvchilarning rentabelligini oshiradi va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi.

BMT YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli ishtirok etishi mumkin. BMT YEIKning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin:
http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Rezavor mevalar standartining ushbu nashri Ishchi guruhning yetmish beshinchi sessiyasida qayta ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan ECE/CTCS/WP.7/2019/9 standartiga asoslanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #YGUNIAKV24 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

REZAVOR MEVALARNI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ЯГОД

STANDARD CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF BERRY FRUITS

Amalga kiritish sanasi 25.03.2026-yil.

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart qoidalari quyidagi turlardan olingan, iste’molchilarga yangi uzilgan holda yetkazib beriladigan meva turlari va botanik navlariga (madaniy navlari) taalluqli; sanoat qayta ishlashiga mo‘ljallangan mevalar bundan mustasno:

• malina (Rubus idaeus L.);

• maymunjon (Rubus sect. Rubus);

• logano Rezavorlari (Rubus loganobaccus L. H. Bailey);

• smorodina (Ribes rubrum L., Ribes nigrum L.);

• krijovnik (Ribes uva-crispa L.);

• chernika- buta mevasi (Vaccinium myrtillus L.);

• golubika (Vaccinium corymbosum L., Vaccinium formosum Andrews, Vaccinium angustifolium Aiton, Vaccinium virgatum Aiton);

• brusnika (Vaccinium vitis-idaea L.);

• klyukva (Vaccinium macrocarpon Aiton);

• mayda mevali klyukva (Vaccinium oxycoccos L.);

• moroshka (Rubus chamaemorus L.);

• ushbu turlarning duragaylari, masalan, boyzenova (Rubus ursinus Cham. et

Schltdl. x Rubus idaeus L.), tikanli malina (Rubus sect. Rubus x Rubus idaeus L.), yoshta (Ribes nigrum L. x Ribes uva-crispa L.

Schltdl. x Rubus idaeus L.), maymunjon (Rubus sect. Rubus x Rubus idaeus L.), yoshta (Ribes nigrum L. x Ribes uva-crispa L.

2 Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi Rezavor mevalarni tayyorlash va qadoqlashdan so‘ng ularning sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdir.

Biroq, u eksportga jo‘natilgandan/yuklab jo‘natilgandan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagilar kuzatilishi mumkin:

• yangilik va elastiklikning ozgina yo‘qolishi (turgessensiya);

• oliy navdan tashqari toifalarga kiritilgan mahsulotlar uchun ularning rivojlanishi va buzilish tendensiyasi tufayli holatining biroz yomonlashuvi.

Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni ko‘rgazmaga qo‘yishi, sotishga taklif etishi yoki ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan holda yetkazib berishi yoxud sotishi mumkin emas. Mahsulot egasi/sotuvchisi mazkur muvofiqlikka rioya etilishi uchun javobgardir.

STANDARTLAR INSTITUTI #YGUNIAKV24 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

A. Minimal talablar

Barcha tovar navlariga mansub Rezavorlar, har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chegaralar doirasida quyidagi talablarga javob berishi lozim:

• shikastlanmagan;

• sifatli bo‘lishi; chirigan yoki buzilgan, iste’molga yaroqsiz holga kelgan mahsulotlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi;

• toza; deyarli ko‘zga ko‘rinadigan begona moddalar bo‘lmagan;

• zararkunanda hasharotlar deyarli mavjud bo‘lmagan;

• zararkunanda hasharotlar tomonidan yetkazilgan shikastlar deyarli yo‘q;

• yangi ko‘rinishga ega;

• g‘ayritabiiy sirt namligi bo‘lmagan;

• hech qanday begona hid va/yoki ta’mga ega bo‘lmagan, shu jumladan qora smorodina holatida achchiq ta’mga ega bo‘lmagan.

Mevalarning rivojlanish darajasi va holati shunday bo‘lishi kerakki, mahsulot:

• tashish, yuklash va tushirishga bardosh bera olsin;

• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetkazilsin.

B. Yetilganlik talablari

Rezavor mevalar o‘zlarining botanik naviga ko‘ra yetarli darajada rivojlangan va pishgan bo‘lishi lozim, biroq haddan tashqari pishib ketmasligi kerak.

Qorag‘at (uzum navi) qattiq yetilgan holatda bo‘lishi mumkin.

C. Tasniflash

Rezavorlar quyidagi uch tovar naviga ajratiladi:

i) Oliy nav

Bu navdagi Rezavorlar eng yuqori sifatli bo‘lishi lozim. Ular o‘zining botanik navi yoki yovvoyi Rezavorlar holatida o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Chernika va golubika mevalari deyarli bir-biriga yopishib qolmagan va o‘z botanik navi xususiyatlariga ko‘ra deyarli to‘liq o‘ziga xos g‘ubor bilan qoplangan bo‘lishi lozim.

Qizil va oq smorodina boshchalari to‘la bo‘lishi shart. Qora smorodina boshchalari to‘liq bo‘lmasligi mumkin, ayrim mevalarning alohida bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Rezavorlarda nuqsonlar bo‘lmasligi kerak, faqat juda kichik yuzaki nuqsonlarga ruxsat etiladi, bunda ular qadoqdagi mahsulotning umumiy ko‘rinishi, sifati, saqlanuvchanligi va tovar ko‘rinishiga ta’sir qilmasligi lozim.

Rezavorlar nuqsonlarga ega bo‘lmasligi kerak, juda kichik yuzaki nuqsonlar bundan mustasno, agar ular qadoqdagi mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va tovar ko‘rinishiga ta’sir qilmasa.

ii) Birinchi nav

Bu navning Rezavorlari yuqori sifatli bo‘lishi lozim. Ular o‘zlarining botanik naviga yoki yovvoyi Rezavorlar holida o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon etishi kerak.

Chernika va golubika mevalari amalda bir-biriga yopishib qolmasligi zarur. Golubika tegishli botanik navga xos bo‘lgan g‘ubor bilan deyarli to‘liq qoplangan bo‘lishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #YGUNIAKV24 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qizil va oq smorodina boshchalari deyarli to‘liq bo‘lishi kerak. Qora smorodina boshchalari to‘liq bo‘lmasligi mumkin, bunda ayrim mevalarning bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Biroq, qadoqdagi mahsulotning umumiy ko‘rinishi, sifati, saqlanuvchanligiga va tovar ko‘rinishiga ta’sir qilmaydigan quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• juda oz miqdorda shira ajralishi;

• juda yengil ezilish.

iii) Ikkinchi nav

Bu navga yuqori navlarga kiritib bo‘lmaydigan, ammo yuqorida belgilangan minimal talablarga javob beradigan Rezavorlar kiradi.

Qorag‘at shingilidagi Rezavorlar bir tekis taqsimlanmagan bo‘lishi mumkin.

Rezavorlar o‘ziga xos sifat belgilarini, saqlanuvchanligini va tovar ko‘rinishini saqlab qolishi sharti bilan quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:

• ozgina shira ajralishi;

• qorag‘atda mog‘orning dastlabki ahamiyatsiz belgilari;

• yengil ezilish

III. Kalibrlashga oid qoidalar

Rezavor mevalarni kalibrlash bo‘yicha talab belgilanmagan.

IV. Ruxsat etilgan chekinishlarga oid qoidalar

Realizatsiyaning barcha bosqichlarida har bir to‘pda ko‘rsatilgan tovar navi uchun belgilangan sifat[1] talablariga javob bermaydigan mahsulot bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chekinishlar

i) Oliy nav

Jami miqdori yoki og‘irligi bo‘yicha 5% gacha Rezavorlar ushbu nav talablariga mos kelmasligi, lekin birinchi nav talablariga javob berishi mumkin. Ushbu ruxsat etilgan chegara doirasida ikkinchi nav sifat talablariga javob beradigan mahsulot umumiy miqdorning/og‘irlikning ko‘pi bilan 0,5 foizini tashkil etishi mumkin.

ii) Birinchi nav

Jami miqdori yoki og‘irligi bo‘yicha 10% gacha Rezavorlar ushbu nav talablariga mos kelmasligi, lekin ikkinchi nav talablariga javob berishi mumkin. Ushbu ruxsat etilgan chegara doirasida umumiy miqdorning/og‘irlikning 2% dan ko‘p bo‘lmagan qismini ikkinchi nav sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki buzilgan mahsulotlar tashkil etishi mumkin.

iii) Ikkinchi nav

Jami miqdori yoki og‘irligi bo‘yicha 10% gacha Rezavorlar ushbu navning talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermasligi mumkin.

Ushbu ruxsat etilgan chegara doirasida buzilgan mahsulot umumiy miqdorning/og‘irlikning 4% dan ko‘p bo‘lmagan qismini tashkil etishi mumkin.

---

[1] Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki aralash namunalarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. U tasodifiy tanlash usuli bilan olingan namunalar sifati partiya sifati uchun reprezentativ degan prezumpsiya prinsipiga asoslanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini jo‘natish bosqichlarida, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi ulgurji va chakana savdo markazlarida va ularning omborxonalarida IHTTning muvofiqlik tekshiruvlarini o‘tkazish bo‘yicha Ishchi qoidalarini qo‘llash tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #YGUNIAKV24 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir o‘ramning tarkibi bir xil bo‘lishi shart; har bir o‘ramda faqat yetishtirilishi va botanik navi bir xil bo‘lgan rezavorlar yoki yovvoyi rezavorlar holatida − turi va sifati bir xil bo‘lgan mevalar bo‘lishi kerak.

Oliy va birinchi navli rezavorlar pishish darajasi bo‘yicha amalda bir xil bo‘lishi lozim.

Biroq, bitta botanik nav doirasida botanik navi va/yoki rangi bo‘yicha yaqqol farq qiladigan rezavorlar aralashmasi, agar ular sifati jihatidan bir xil va har bir tegishli botanik nav hamda rangga ko‘ra yetishtirilishi bo‘yicha bir xil bo‘lsa, iste’mol o‘ramlariga joylanishi mumkin.

O‘ramdagi mahsulotning ko‘rinadigan qismi butun o‘ram tarkibiga mos kelishi zarur.

B. O‘rash

Rezavor mevalar shunday o‘ralishi kerakki, mahsulotning tegishli saqlanishi ta’minlansin.

O‘ram ichida ishlatiladigan materiallar toza va sifatli bo‘lishi, mahsulotning tashqi yoki ichki tomondan shikastlanishiga olib kelmasligi kerak. Savdo xususiyatlarini ko‘rsatuvchi qog‘oz yoki yorliqlar kabi materiallardan foydalanishga, agar matn yozish yoki yorliqlarni yopishtirish uchun zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim ishlatilsa, ruxsat etiladi.

O‘ramlarda yovvoyi rezavor mevalar uchun tasodifan tushib qolgan barg va novdalardan tashqari hech qanday begona moddalar bo‘lmasligi lozim.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir o‘ramga[2] aniq va o‘chmaydigan shrift bilan quyidagi ma’lumotlar bir tomoniga guruhlangan holda va tashqaridan ko‘rinadigan tarzda yozilishi shart.

A. Aniqlovchi belgilari

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi.

Nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/tuman/pochta indeksi va mamlakat, agar u yetishtirilish mamlakatidan farqli bo‘lsa) yoki vakolatli milliy organ[3] tomonidan rasman tan olingan kod belgisi, agar bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat BMT[4] YIKning Kod belgilari ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa.

Aniq pochta manzili mavjud bo‘lmagan hollarda, xo‘jalik yoki obyekt nomi, eng yaqin aholi punkti, shahar, viloyat va pochta indeksi jismoniy manzil sifatida ko‘rsatilishi mumkin; yoki GPS koordinatalari, shuningdek, eng yaqin shahar, viloyat va mamlakat ko‘rsatilgan

---

[2] Tamg‘alash to‘g‘risidagi ushbu qoidalar ushbu ma’lumotlar ko‘rsatilgan o‘ramlardagi iste’mol o‘ramlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida sotiladigan sotish uchun qadoqlarga (iste’mol qadoqlariga) taalluqlidir.

[3] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab qiladi.

Biroq, kod belgisi qo‘llanilgan taqdirda, kod belgisining bevosita yaqinida "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi" belgisi (yoki tegishli qisqartmalar) qo‘yilishi kerak, kod belgisidan oldin esa, agar u yetishtirilish mamlakatidan farq qilsa, sertifikatlovchi mamlakatga tegishli bo‘lgan (ikki harfli) mamlakat/tuman kodi (ISO 3166) bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #YGUNIAKV24 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[4] Qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html.

abonent qutisi manzili ham jismoniy manzil[5] o‘rnida qabul qilinadi.

B. Mahsulotning xususiyati

• "Malina," "maymunjon," "logan mevasi," "smorodina," "qorag‘at," "chernika-buta mevasi," "golubika," "brusnika," "klyukva," "moroshka," "boyzena mevasi," "tut (yejemalina)," "yoshta" yoki mahsulotning ekvivalent nomi, agar uning tarkibi tashqaridan ko‘rinmasa.

• "Mevalar aralashmasi" yoki botanik navi va/yoki rangi bo‘yicha aniq farq qiladigan mevalar aralashmasi holatida ekvivalent belgi. Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinmasa, botanik navlar va/yoki ranglar va ularning har birining qadoqdagi miqdori ko‘rsatilishi kerak.

• Botanik navning nomi (ixtiyoriy).

C. Mahsulotning yetishtirilishi

• Yetishtirilish[6] mamlakati va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirish hududi yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy nomi.

• Yetishtirilishi turlicha bo‘lgan botanik nav va/yoki rang bo‘yicha aniq farqlanuvchi rezavorlar aralashmasi holatida har bir yetishtirilish mamlakatining nomi tegishli botanik nav va/yoki rang nomlaridan keyin ko‘rsatiladi.

D. Tovar xususiyatlari

• Tovar navlari.

• Tegishli hollarda, "Yovvoyi holda o‘sgan".

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

5 Amerika Qo‘shma Shtatlarining abonent qutisi manzilidan foydalanish bo‘yicha eslatmasi, chunki u korxonani tekshirishga yoki mahsulot chaqirib olinganda tezda aralashishga imkon bermaydi, shuningdek, qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi bilan bog‘liq milliy markirovka talablarining bir qismi emas.

6. To‘liq yoki odatda ishlatiladigan nom ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI#YGUMAKV24 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bibliografik ma’lumotlar

SMT 67.080

STANDARTLAR INSTITUTI #YGUNIAKV24 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI